



## BANK SEKTORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

G'afurova Shahloxon Karimovna

*Buxoro Davlat Universiteti Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi*

Ikromova Maftunabonu Usmon qizi

*Buxoro Davlat Universiteti Iqtisodiyot va Turizm fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu Maqolada banklar faoliyatining transformatsiyalashuvi natijasida an'anaviy bank faoliyatining raqamlashuvi natijasida yuzaga kelishi va banklarda risklarni boshqarishning yangi tizimlari, hamda raqamli muhitda risklarni samarali boshqarish bo'yicha muallif yondashuvlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli banking, online-banking, masofaviy bank xizmatlari, Fintech startaplari.

**Annotation:** This article presents the author's approaches to the digitalization of traditional banking as a result of the transformation of banking activities, new risk management systems in banks, and effective risk management in a digital environment.

**Keywords :** Digital banking, online-banking, remote banking services, fintech startups.

**Аннотация:** В данной статье представлены авторские подходы к цифровизации традиционного банковского дела как результат трансформации банковской деятельности, новых систем управления рисками в банках и эффективного управления рисками в цифровой среде.

**Ключевые слова:** Цифровой банкинг, онлайн банкинг, дистанционные банковские услуги, финтех стартап

### KIRISH

So'nggi yillarda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish banklar tomonidan turli innovatsion bank xizmatlari taklif qilinmoqda. Xususan masofadan bank xizmatini ko'rsatuvchi an'anaviy "Bank- mijoz" tizimi respublikamizda keng tarqalgan bo'lib, barcha banklarda tadbiq qilingan. Ushbu tizimni qo'llash uchun mijozning kompyuterda maxsus dastur o'rnatilib, aloqa kanallari orqali bankning axborot tizimi bilan o'zaro muloqot ta'minlanadi. Ammo "Bank-mijoz" tizimini qo'llashda muayyan ish joyiga bog'lanish hamda ixtisoslashtirilgan dasturlardan foydalanish zarurligi sababli, ushbu tizimdan foydalanish imkoniyati cheklangan. Shuning uchun internet tarmog'i va oddiy brauzer, ya'ni mijozni tarmoqa kirishni ta'minlovchi keng tarqalgan dastur orqali ishlashni ta'minlovchi online-banking (internet-banking) tizimi keng qo'llaniladi.

Bir qator olimlarning tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Ularda olimlarning masofaviy bank xizmatlariga odi fikr-mulohazalari tahlil qilindi. Xususan, Rus iqtisodchi olimi V.K.Spilnichenkononing fikricha, "Bank hisob varag'iga masofadan xizmat ko'rsatish bu informasion xizmatlarning kompleksi va mijozning hisob varag'i bo'yicha operatsiyalarni uning bankka tashrif buyurmasdan bergan topshirig'iga asosan bajarishdir".



Bank hisob varag'iga masofadan xizmat ko'rsatish tizimi telekommunikatsiya tizimi orqali bankning ma'lumotlar bazasiga mijozning murojaatiga asoslanadi. Raqamli bank tushunchasi va ishga tushish ish jarayoni XX asrning oktabridan boshlangan. XX asrda ish boshlagan "First Direct" banki (Buyuk Britaniya) filialsiz bank yaratgan birinchi bank bo'ldi. Ya'ni shu davrda birinchi mijozlarga xizmat ko'rsatish telefon orqali bank tomonidan amalga oshirilgan edi. Bank birinchi ish kuni davomida o'z mijozlaridan 1000 ga yaqin qo'ng'iroqlarni qabul qildi. Oradan 6 yil o'tib "First Direct" banki ro'yxatida 500 000 dan ortiq mijozga xizmat ko'rsatishni boshlagan. Amerika Qo'shma Shtatida 2022-yilda Kris Skinnerning nashr etilgan "Digital bank" kitobida raqamli bank iborasiga batafsil tavsif berilgan.

Masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini rivojlantirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Raqamli xizmatlar ko'rsatish xarajatlarni ma'lum darajada kamaytirishga yordam beradi va o'z navbatida raqamli xizmatlarni taqdim qilgan bank daromadga ham erishadi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar orqali mijozlarning afzalliklarini o'rganish mijozlarning manfaatlariga muvofiq raqamli bank mahsulotini yaratish bankning raqobatbardoshligini oshiradi. Zero, bozorda bankning ulushi qanchalik katta bo'lsa, uning foydasini oshirish ehtimoli ham shunchalik yuqoridir. Bizning banklarimiz naqd pul muomalasi bo'yicha ishlagan va ishlamoqda, ammo hozir bu model elektron pul bilan ishlashga moslashtirilmogda. Zamonaviy jamiyat raqamli makonda ko'proq vaqt sarflaydi va bu banklarning mijozlar bilan munosabatlarini va ularga xizmat ko'rsatish usullarini butunlay qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Aynan hozir O'zbekiston banklarida mijozlarga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining bir necha turlari mavjud. Ular "Bank-Mijoz", "Internetbanking", "SMS-banking" va "WAP-banking" dir. Mijozlarga raqamli bank xizmatlarini ko'rsatish bank va uning mijozi o'rtasidagi munosabatlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, pul mablag'larini boshqarishning tezkorligini hamda bank operatsiyalarining sifatli qayd qilinishini ta'minlaydi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, iqtisodiyotni rivojlantirish doimo yangi IT-texnologiyalari asosida amalga oshadi. Shu sababli ham zamonaviy ilmiy-texnik inqilob sharoitlarida bank sohasi bu borada yetakchilardan biri sanaladi. Shu sababli ham bu yo'nalishdagi katta moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish maqsadida raqamli bank sohasida kredit tashkilotlarining samarali va sifatli havfsizlik tizimini yaratish talab etiladi.

Raqamli banklar insoniyat uchun masofadan xizmat ko'rsatish, bank va mijoz o'rtasidagi jarayonni raqamlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, mijozlarning omonat hisobini, plastik kartalarga ochilgan hisobini, masofadan boshqarish imkoniyatini beradi. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari bank xizmatlari uchun ketadigan vaqtni tejaydi va inson resurslaridan foydalanishni kamaytiradi.

Bugungi kunda raqamli banklarning asosiy afzalliklari:

- raqamlashtirilgan banklarning mijoz uchun sifatli va qulay bo'lgan mobil ilovasi;




- raqamli banklarning mamlakatimiz bo'ylab bank filiallari kengaymasligi;
- raqamli banklar ortiqcha bino-inshoot va boshqa resurslarni talab qilmasligi;
- raqamli banklar mijoz va bank o'rtasida doimiy ravishda onlayn aloqa tizimining o'rnatilganligi;
- raqamli banklarda byurokratik to'siqlarni mavjud emasligi;
- raqamli banklarda mijozlar talabidan kelib chiquvchi shuningdek bozor talablariga javob bera oladigan kreditlar va omonatlar uchun eng qulay sharoitlar;
- raqamli banklar mijozlar uchun sifatli, tezkor, qulay, havfsiz va kechayukunduz ish rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;
- raqamli bank ilovalarining mijozlar uchun xizmat ko'rsatish sohalarini arzonligi jihatidan farqlar mavjud.

«Raqamli» banklar faoliyatini rivojlantirish va o'z o'rnini ushlab qolish maqsadida banklar Fintech startaplarini moliyalashtirmoqda yoki sotib olmoqda. Butun dunyoda kuzatilayotgan bu vaziyat yurtimiz banklariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi shubhasiz.

Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” boshqa milliy strategik hujjatlar va dasturlarda nazarda tutilgan vazifalar, xususan, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha milliy vazifalar hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, 2026 yil oxiriga qadar uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish, bunda dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish, shuningdek, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70 foizgacha oshirish belgilangan. Bundan tashqari, shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va «Aqlli shahar» konsepsiyasi doirasida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

**Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni**  
 1 yanvar holatiga



1-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni



Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bank xizmatlaridan masofadan turib foydalanuvchilar sonida yildan yilga keskin o'sish dinamikasini kuzatish mumkin. Jumladan, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 20 mln.dan ortiq kishini tashkil etgan bo'lib, 2018-yilga nisbatan 4,5 martaga, 2016-yilga nisbatan esa 19 martaga oshgan.

Albatta, bugungi kunda axborot tizimining sezilarli darajada o'zgarishi asosida jamiyat, huqumat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohasidagi tub o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin. Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolangan, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yana-da kengaytirish vazifasi yuklatilgan.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda 2020 yilda "Anorbank" va "TBC bank"lar raqamli bank sifatida ro'yxatga olindi.

Darhaqiqat, "raqamli bank" tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o'z mijozlariga yana-da qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi.

Bugungi kunda raqamli bank sanalmish "Anorbank" va "TBC bank"lar ham o'z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to'liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozlari 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya'ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta'mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Tadqiqotlarimiz banklar raqamli bankdan mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, jalb qilish, saqlash, mijozlarning turli ehtiyojlarini qondirish tajribasi va darajasini o'rganish, shuningdek, rentabellik, xarajatlarni tejash, aktivlar rentabelligi, xarajatlar va daromadlar nisbati, daromadlar va savdo o'sishini yaxshilash orqali moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatdi. Shuningdek tadqiqot iste'molchilarning daromadni oshirish yo'llarini ko'rib chiqishi kerak bo'lgan raqamli banklarga bo'lgan munosabati haqida ma'lumot beradi. Bu innovatsion raqamlashtirish texnologiyalariga investitsiyalarning o'sish tendentsiyasini ta'kidlaydi va raqamlashtirishdagi innovatsiyalar banklarga qo'shimcha xizmatlarni joriy etish, mahsulotlarni farqlash, sotishni ko'paytirish, banklarning raqobatbardoshligini oshirish va raqamli qurilmalar orqali mijozlarning o'sib borayotgan ehtiyojlariga javob berish imkonini berishini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

- 1.Ibodov, A., & Sherov, A. (2015). Analysis of bank risks in Uzbekistan. Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach
2. Ikramova N.R. O'zbekistonda bank xizmatlari: xorij tajribasi va rivojlanish istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali.



3. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. (2021). DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN CORPORATE GOVERNANCE OF JOINT STOCK COMPANY. Экономика и бизнес: теория и практика,

4.Омонов А.А Raqamlashtirilgan banklarning resurslarini samarali boshqarish masalalari. 08.00.07 - «Молия, пул муомаласи ва кредит» иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олшк учун тақдим етилган диссертациуа автореферати. Toshkent, 2008;

5.Taylor Nicole Rogers, "Bank of America finally sees mobile deposits surpass inperson transactions," The Street, July 16, 2018

6. Thabani Nyoni va boshqalar "The impact of digital banking on the perfomance of commercial banks in Zimbabwe". IJARIE-ISSN(O)-2395-4396 Vol-6 Issue-6 2020

7. Gafurova, S. K. (2023). Quality Management In Education: A Systematic Approach. Educational Research In Universal Sciences, 2(17 SPECIAL), 126-129.

8. Mekhrangiz, G. S. K. T. S. (2023). QUALITY MANAGEMENT OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS (HEIs). SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS, 1(12), 86-94.

9. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

10.Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. European journal of business startups and open society, 3(12), 154-157.

11.Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.

12.Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.

13.Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).